

## Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish usullari

O'zDJTU 3-ingliz tili Fakulteti 2123-guruh 2-kus talabasi

Yo'ldoshova Nilufar

Ilmiy rahbar: Rahmatova E'zoza

**Annotatsiya:** Bu maqola asosan qanday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tiliga qiziqtirish va qaysi usullardan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini o'tish to'g'risida muhokama yuritadi. Buning uchun eng avvalo sinfdagi bolalarni qaysi qanday tarzda o'zlashtirish qobiliyati borligini aniqlab olishimiz kerak. Quyida bir nechta usullar aytib o'tilgan.

**Tayanch so'zlar:** beginner, elementary, ommaviy axborot vositalari, uzluksiz o'rganish, tassavur olamini boyitish.

**Kirish.** Birinchi usulimiz sinfdagi eng past o'zlashtiruvchi bolalarni fanga qiziqtirish: Buning uchun sinfdagi o'quvchilarni bir nechta guruhlariga bo'lib olamiz. Ularning qoliblatrlaridan kelib chiqqan holda topshiriqlar berib boramiz. Eng soda va o'quvchi tushunishiga qulay bo'lgan usul turli xil rasmlar ko'rgazmalardan foydalanib mavzuni yoritib beramiz. O'quvchilarga ham har xil rasmlar tarqatamiz va shu rasmlarda biladigan so'zlarning inglizchasini aytishini so'raymiz. Eng past o'zlashtiruvchi o'quvchi ham kamida 5 tacha so'zni inglizchasini ayta oladi va biz uni maqtab a'lo baho qo'yib beramiz. O'quvchi shu asnoda darsimizga sekin astalik bilan qiziqib boradi. Keyingi usulimiz beginner darajadagi o'rganuvchilarimiz uchun. Ular endi inglizcha so'zlarni ancha bilishadi. Biz endi ularga ozroq grammatika haqida tushuncha berishimiz kerak. O'quvchilarga masalan "to be" ni o'tib berdik deylik. Biz sinfda "to be" ni qatnashtirib 10 ta gap yozishini aytamiz. O'quvchi bu topshiriqni bajarish davomida qaysi shaxsda "to be" ning qaysi shakli foydalanishi kerakligini yana bir bora takrorlab oladi. Albatta ularning har bitta yozayotgan gaplari tassavur olamini kengaytishda yordam beradi. Endi elementary darajadagi bolalar ozroq grammatikadan ham xabardor bo'lishadi. Endi ularga sekin asta so'zlashishni ham o'rgatib borishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun eng samarali yo'l ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda o'rgatish. Deylik dars davomida bola 10 ta so'zni yod oldi, biz bola o'rgangan so'zlaridan tashkil topgan qisqa videoro'lik yoki multfilm qo'yib beramiz. Bola ham ko'rib ham eshitib o'rganadi. Keyin o'zlari ham 1 tadan og'zaki gap tuzib aytib berishlarini so'raymiz. Uyg'a topshiriq qilib shu so'zlar yordamida matn tuzib kelishini va o'shani aytib berish kerakligini topshiramiz. Bola uyida uzluksiz takrorlab o'rganadi, o'rganganlarini kelib o'rtoqlari bilan muhokama qilib boshlaydi va yana

ko'proq yangi narsalar o'rgangisi keladi. Keyingi usulimiz yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilarimiz uchun. Endi ularga ozroq murakkabroq topshiriqlar beramiz, ularga mavzudan tashqari biror mavzu yuzasidan qisqa video beramiz ular o'sha videoni ko'rib o'rganib kelishadi. Tushunganlarini kelib aytib berishlari kerak bo'ladi. Ular keyin har xil mavzuda bir birlari bilan fikr almashishadi va ingliz tiliga qiziqishi ortadi. O'qituvchi ingliz tiliga qiziqishni boshlagan o'quvchilariga asta –sekinlik bilan so'zlarni to'g'ri tallafuz qilishni ham o'rgatib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'p ingliz tili o'rganuvchilari so'zlarni xato tallafuz qilishadi, buning sababi yangi so'zlarni ko'rganida ularni taxminiy tarzda tallafuz qilishadi. Albatta, tillar har xil va o'zbek tilidagi tovushlar ingliz tilidagi tovushlardan farq qiladi. O'sha uchun biz to'g'ri tallafuzni o'rgatib borishimiz kerak. Biz to'g'ri tallafuzni o'rgatayotganimizda eng yaxshi va samarali usul "ketidan takrorlash" usulidan foydalansak juda yaxshi foydali bo'ladi. Buning uchun bu usulni 3ta qadamda bajaramiz. Birinchi qadam: masalan mevalarni qanday tallafuz qilishni o'rgatmoqchimiz. Buning uchun yangi so'zlarni rasmini va qanday to'g'ri talafuz qilishni video yordamida ko'rsatamiz. Ikkinchi qadamda esa yana o'sha videoni "subtitle" bilan qo'yib ketidan tallafuz qilamiz. Uchunchi qadamda esa faqat rasmlarni ko'rsatmiz va o'qituvching yordami bilan o'quvchilarning o'zlari tallafuz qilishadi. Shu tariqa har dars yangi so'zlarning tallafuzi o'rgatib boriladi. O'quvchilarga esa uyga vazifa qib yana bir bor yangi so'zlarni yod olishini topshiriq beramiz. Ular keying darsda o'rganganlarini aytib berishadi ular yo'l qo'ygan tallafuzdagi xatolarini to'g'irlab boramiz va o'sha so'zni butun sinfdagi o'quvchilar bilan kamida 3marta takrorlaymiz. Shu tariqa o'quvchilarning to'g'ri tallafuz qilishi o'sib boradi.

Keyin esa asta –sekinlik bilan bolalarga qisqa soda gaplar tuzishni o'rgata boshlaymiz. Ularni birinchi bo'lib ikkita-ikkita qilib guruhlarga bo'lib olamiz va ularga turli xil mavzudagi rasmlarni tarqata boshlaymiz. Ular shu rasmlar asnosida o'rtog'i bilan birgalikda gaplar tuzishadi. Keyin barcha bolalarning tuzilgan gaplarini tekshirib chiqamiz. Ular yo'l qo'ygan xatolarini tushuntiramiz. Uyga vazifa qilib gaplardagi xatolarini o'rganib yana ikkitadan gap tuzishlarini topshiriq qilib beramiz. Shu tariqa bolalarda nutq ko'nikmasini shakillantira boshlaymiz.

## Adabiyotlar

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-sinflarda-ingliz-til>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilarga-ingliz-tilini-o-qitishda->
3. <https://zenodo.org/record/6550778#.Y8FHu3ZBzIU>

